

Zohidov Qobiljon

tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yangi Asr Universiteti

Annatsiya: *Maqolada xarbiy qo'mondon Xolid ibn al-Validning islomdan avvalgi hayoti va Umar ibn al-Xattob xalifaligi davrida qo'mondonlikdan tushirilishi haqidagi ba'zi qarashlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Xolid ibn al-Valid, Sayfulloh, Malik ibn Nuwayro, Abu Ubayda ibn Jarroh.*

Abstract: *The article presents some views on the pre-Islamic life of the military commander Khalid ibn al-Walid and his removal from command during the caliphate of Umar ibn al-Khattab.*

Keywords: *Khalid ibn al-Walid, Sayfullah, Malik ibn Nuwayra, Abu Ubaydah ibn Jarrah.*

Xolid ibn Valid 592-yili Makkada tavallud topgan. U avvaliga Muhammad (s.a.v.)ning dushmani sifatida gavdalandi. 625-yili Uhud jangida musulmonlarga qarshi kurashgan edi. Hijratning 7 yili islomni qabul qildi va Muhammad (s.a.v.)ning qo'mondalaridan biriga aylandi. Islomda unga "Sayfulloh" (سيف الله – Allohning qilichi) tahallusi berildi.

Muhammad payg'ambar va xalifa Abu Bakr davrida harbiy qo'mondon vazifasini o'tagan Xolid ibn al-Validni 'Umar ibn al-Xattob tomonidan qo'mondonlik vazifasidan chetlatish masalasi movhum bo'lib, ko'plab tadqiqotlar nazaridan chetda qolmoqda. Tadqiqotlarda Xolid ibn al-Validning bosh sarkarda vazifasidan ozod etilishi borasida ba'zi noaniqliklar mavjud. Masalan, tadqiqotchi Akram Diyo' al-'Umariy 'Umar ibn al-Xattob xalifaligining avvalida qo'mondon Xolid ibn al-Validni vazifasidan ozod etdi. Bunga sabab Malik ibn Nuwayro bilan bog'liq bo'lgan masala va johiliyatdan beri kelayotgan shaxsiy adovat edi[5:372].

To'g'ri, Abu Bakr davrida bosh qo'mondon Xolid ibn al-Valid Malik ibn an-Nuvayroni o'ldirishda va uning xotiniga noqonuniy tarzda uylanganlikda ayblangan va 'Umar ibn al-Xattob tomonidan uni bosh qo'mondonlikdan bo'shatish taklif etganligi haqida tarixchilar yakdil fikrdalar [1: 3/249; 4:241]. Ikkinchidan, 'Umar ibn al-Xattobning o'zi xalifa bo'lgan paytidayoq Xolidni ishdan chetlatmagan. Chunki, Xolid ibn al-Valid 636-yil may oylarida Damashq shahri aholisi bilan shartnoma imzolagan [6:2/41]. Shuningdek, O.G. Bolshakovning fikricha, 639-yili Quddus ahli bilan imzolangan shartnomada Xolid ibn al-Valid imzosi mavjud [6:2/76]. Uchinchidan, 'Umar ibn al-Xattob oliy qo'mondon Xolid ibn al-Validni johiliyatdan beri kelayotgan shaxsiy adovati hamda xalifalikka da'vogarlik (oppozitsiya)da ayblab ishdan bo'shatishi munozaralidir. Chunki, manbalarning xabar berishicha, 'Umar ibn al-Xattob va Xolid ibn al-Valid amakivachcha bo'lib, o'zaro adovatli qabilalarga mansub bo'lmaganlar [1:4/230]. Shu bilan birga 'Umar Xolid ibn al-Validni sarkardalikdan bo'shatgach, uning o'rniga bosh qo'mondon etib tayinlangan Abu 'Ubayda ibn Jarrohga Xolidning hurmatini joyiga qo'yishni va davlat g'aznasiga hiyonatda yoki unga xalifaning shaxsiy adovati sababli o'z lavozimidan olinmaganligini e'lon qilishini buyurgan [2:1/389].

Tadqiqotlarda Xolid ibn al-Valid va xalifa 'Umar ibn al-Xattob o'rtasidagi tortishuvlar turlicha talqin etiladi. Jumladan, xalifa 'Umar ibn al-Xattob Xolid ibn al-Validni maqtab she'r yozgan shoir al-Ash'as ibn Qays (600-661)ga 100 dinor mukofot berganlikda ayblab, uni qamaganlar va u mukoft pulini o'z hamyonidan berganligi isbotlangach, uni bosh qo'mondonlikdan ozod etgan, degan fikrlar mavjud [7:122-123]. Ammo, bu fikrlar bir necha jihatdan munozaralidir. Avvalo, al-Ash'as ibn Qays shoir emas balki, Xolid ibn al-Valid qo'l ostida qo'mondon bo'lgan [2:125; 6:1/203]. Ikkinchidan, manabalarda pul birligi (100) dinor emas balki, (1000) dirham etib ko'rsatilgan [1:4/215]. Manbalarda haqiqatan ham Xolid al-Ash'as ibn Qaysga o'z hamyonidan 1000 dirham mukofot berganligi haqida ma'lumotlar mavjud [1:4/223; 3:4/321]. Shuningdek, Xolid ibn al-Validni bu voqea Iroq viloyati hududida ro'y berganini hisobga olinsa, albatta Sosoniylar

imperiyasi hududlarida pul birligi dirham bo'lgan.

Tadqiqotlardagi 'Umar va bosh qo'mondon Xolid ibn al-Valid borasidagi fikrlarning turlichi uning islom tarixida mashhur kishilardan ekanligini ko'rsatadi. Xalifa 'Umar Xolidni bosh qo'mondonlikdan bo'shatishining asosiy sababi, uni Madina hokimiyatining ruxsatisiz ish olib borishi va zabt etilgan hududlarda o'z hoxishicha, ish yuritishi sabab bo'lgan bo'lishi kerak. Chunki, Xolid ibn al-Valid zabt etilgan hududlar markazida xalifaning roziligisiz o'ziga ikki noib tayinlab, ularning biriga soliq yig'ish va biriga harbiy holatni boshqarish vakolatini bergan [1:2/425]. Xalifa 'Umar ibn al-Xattob Xolid ibn al-Validni askarlar "dohiy" darajasiga olib chiqishlari va islom dinini yoyish uchun olib borilayotgan janglar Allohning inoyati bilan emas, balki, Xolidning sharofati bilan amalga oshirilmoqda, degan xulosaga borib qola boshlaganlari xavfidan uni bo'shatganligi haqiqatga yaqinroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. at-Tabariy. Ta'rix al-umam va al-muluk: 8 jildli. – al-Qohira, 1982.
2. al-Balazuriy. Ansob al-ashrof: 2 jildli. – Bayrut. 1977.
3. Ibn Sa'd. at-Tabaqot al-kubro: 8 jildli. – Bayrut: Dor as-sadr, 1984-1988.
4. Muhammad al-Xudariy. ad-Daula al-umaviya. – Bayrut: Dor al-qalam, 1986.
5. Akram Diyo' al-'Umariy. 'Asr al-xilofa ar-roshida. – ar-Riyod, 1998. – 530 s.
6. Bolshakov O.G. Istoriya Xalifata: v 4 tomax. – M.: GRVL, 1989-2010.
7. al-Gayyar. H.M. al-Faruq 'Omar ibnul-Khattab. – Beirut, 1985.
8. Abdur Rehman Shad. 'Umar Faruq. – Lahore.: Kazi pulication, 1979.
9. Зоҳидов Қ. Т. ОҒ БОЛЬШАКОВНИНГ “ХАЛИФАЛИК ТАРИХИ (ИСТОРИЯ ХАЛИФАТА)” МОНОГРАФИЯСИ ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТИ ТАРИХИ БЎЙИЧА ЙИРИК ТАДҚИҚОТ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 145-148.
10. Зоҳидов Қ. Т. ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА РАҲБАРЛИК ТИТУЛЛАРИ //Scientific progress. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 173-182.

11. Tairdjanovich Z. K. The Implementation of Ahl Ad-Dhimma Status in the Politics of the Arab-Muslim Countries //Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2022. – T. 3. – №. 12. – С. 320-326.
12. Toirjonovich Z. K. WORKS IN THE GENRE OF SIIRA AND TABAKAT ARE AN IMPORTANT SOURCE IN THE STUDY OF ARAB-MUSLIM HISTORY //" NEW CENTURY"-SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2023. – T. 1. – №. 1.
13. Зоҳидов Қ. Т. “ТАБАҚОТ” АСАРЛАРИНИНГ ИСЛОМ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЎРНИ //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 13. – С. 61-64.